

## IBN SINO-TABOBAT ILMINING SULTONI

*Jumanazarova Sarvinoz Ergash qizi*  
*UrDPI Pedagogika fakulteti talabasi*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada buyuk bobokalonimiz, tibbiyot ilmiga ulkan hissa qo'shgan, bundan tashqari falsafa, tabiatshunoslik ilmlarini yanada boyishiga xizmat qilgan ajdodimiz Ibn Sinoning hayot yo'li hamda ilmga qo'shgan hissalarini haqida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Tabobat, falsafa, farmatsevtika, "Tib qonunlari", Odil Yoqubovning "Ko'hna dunyo" asari, Gippokrat, Galen, Pavel, hindistonlik tabib Charaka, ziddizahar, kulcha dori (tabletka), elaki dori.

Bugungi kunda farmatsevtika sohasi jadal rivojlangan davrda deyarli har kuni ko'pchiligimiz kundalik hayotimiz davomida dori vositalarini qabul qilamiz. Insonlarning sog'ligini saqlash, turli xil kasalliklarni oldini olish maqsadida olimlar tibbiyot sohasida ko'plab izlanish-tadqiqotlar, amaliyotlar o'tkazib, bu borada yetarli darajada yutuqlarga erishmoqdalar. Avvalari davo topilmagan kasalliklar muammosiga yechim topilib bormoqda. Shu o'rinda aytish kerakki, bizning Abu Ali ibn Sino bobomiz o'z davrining eng buyuk tabibi hisoblangan. U o'zining ilmiy izlanishlari, amaliy va nazariy qidiruvlari ortidan nafaqat biz yosh avlodga ulkan, bebaho ilmiy xazina qoldirdi, balki butun insoniyat uchun bitmas-tuganmas yaxshilik qoldirib ketgan. O'sha zamonda tuzatib bo'lmaydigan dardlarning davosini topdi, turli giyoh-otlar bilan insonni qay yo'sinda davolash kerakligini o'z asarlarida bayon qilgan. Mana shunday asarlari ichida eng mashhuri va eng qimmatlisi "Tib qonunlari" asari hisoblanadi. Bu asar nech ming yillar mobaynida butun insoniyat ahli uchun tibbiyot qo'llanmasi bo'lib kelmoqda. Xususan, ushbu asar ya'ni "Al-qonun fit-tib" asari XII asrdayoq lotinchaga tarjima qilinib, to XVII asrgacha Yevropa tabobatida asosiy qo'llanma sifatida foydalanilgan. Ibn Sino hayoti davomida 450 dan ortiq, shu jumladan, tibbiyotga doir 43 ta asar yozgan bo'lsa, uning mana shu "Al-qonun fit-tib" nomli qomusiy asarida kasalliklarning kelib chiqish sabablari va manbalari, tashxis, muolaja usullari, dorivor o'simliklar va dori-darmonlarning xususiyatlari, parhez, inson salomatligi uchun jismoniy tarbiyaning ahamiyati kabi tabobatning g'oyat muhim masalalariga alohida e'tibor berilgan.

To'liq ismi Abu Ali al-Husayn ibn Abdulloh ibn Sino bo'lgan bobomiz milodiy 980-yilning 18-iyunida Buxoroning Afshona qishlog'ida tug'ilgan. Oilada 2 ta farzand bo'lib, u to'ng'ichi edi. Otasi Abdulloh, onasi Sitora bo'lgan, ukasining ismi esa Mahmud bo'lgan. Ibn Sino yoshligidan ilmga chanqoq bo'lib, 10 yoshga yetar-yetmas Qur'on va adab darslarini to'liq o'zlashtiradi. Bundan tashqari arab tili va adabiyotini

mukammal egallaydi. Ibn Sinoning ilm sohasidagi ilk ustozu Abu Abdulloh Notiliy edi. U el orasida mashhur bo'lgani uchun otasi o'g'lini unga shogirdlikka beradi. Notiliyning qo'lida olim mantiq, handasa va falakiyotni o'rgandi va ba'zi falsafiy masalalarda ustozidan ham o'zib ketdi. Albatta, uning bunday olim darajasida yetishishining tag zahirida unga oilasi ya'ni ota-onasi tomonidan ilm olishiga yaratib berilgan imkoniyatlar ham muhim ahamiyat kasb etadi, u tinmay mutolaa qiladi va turli ilm sohalarini o'zlashtirishga kirishdi. U tabobatdan tashqari musiqa, optika, kimyo, fiqh (huquqshunoslik), kabi fanlarni o'qidi. Husaynni Ibn Sino bo'lib tanilishida, tibbiyot bo'yicha ilm egallashida Abu Mansur al-Hasan ibn Nuh al-Qumriyning xizmati katta bo'ldi. Ibn Sino hali 17 yoshidayoq xalq orasida tabib sifatida tanildi. Biz Ibn Sinoning buyuk tabib ekanligini o'zbek sovet adabiyotining yirik vakili bo'lmish Odil Yoqubovning 1982-yilda yozilgan "Ko'hna dunyo" asaridan ham bilishimiz mumkin. Asarda adib ikki buyuk olimning, aniqroq qilib aytganda, Ibn Sino va Beruniyning taqdiri, bolalik hamda yoshlik yillari, ijodkorga aylanguncha bo'lgan davrini chiroyli va jozibador bo'yoqlarda tasvirlaydi. Ibn Sino va Beruniyning ilm-fan taraqqiyotiga qo'shgan hissalarini birlashtirishga harakat qiladi. Odil Yoqubovning ushbu asarida Ibn Sino mashhurlikka erishgach soxta Ibn Sinolar ham ko'payib ketishi haqida ham so'z yuritilgan. Bu yaxshi, tabiblar ko'paysa, insonlarning og'iri yengillashadi deb o'ylarsiz, ammo, afsuski, ularni to'liq, mukammal, uddasiburon tabiblar deb bo'lmas edi, chunki ular bemorlarni davolashda haqiqiy Ibn Sinoday butunlay tabiiy, shifobaxsh giyohlardan foydalanishmas edilar, balki og'riqni vaqtincha qoldirish uchun turli-tuman giyohvand o'simliklardan foydalanar edilar. Xullas, kunlardan bir kun mamlakat podshohi kasallikka chalinadi va darhol Ibn Sinoni chaqirtiradila, lekin Ibn Sino u yerga borolmasligini aytadi, chunki u bir qishloqda ediki, u yerdagi odamlar bir dardga chalingandi va ularni davolash bilan band bo'lganligi sababli u bora olmasligini aytadi, ammo u axiyri boradigan bo'ldi va boradi ham, ne ko'z bilan ko'rsinki, shohning oldida allaqachon Ibn Sino o'tiribdi, u albatta soxta Ibn Sino ekanligi aniq va ravshan edi. O'shanda soxta Ibn Sino o'zini "Men haqiqiy Ibn Sinoman"- deb aytadi. Chin Ibn Sino esa o'zini Ibn Sino emasligini ma'lum qiladi. Shundan ham ko'rinib turibdiki, haqiqiy ilmi kishi o'z ilmi bilan maqtanmaydi, balki qancha bilim egallagani sayin, shuncha bilimsiz ekanligini tan olaveradi. Buyuk yunon faylasufi Suqrot ham shunday kamtar inson bo'lgan va shunday deb aytgan ekan: "Insonlar meni hech nimani bilmasligimni bilganim uchun ham buyuk deb hisoblashsa kerak"-deb o'ylaydi. Xalqimizda ham shunday maqol bor " Kamtarga kamol, manmanga zavol " .

Ibn Sinoning buyuk merosi "Tib qonunlari" nafaqat biz uchun, balki insoniyat dunyosi uchun tabobatning poydevori hisoblanadi. Olimning bu asari o'z davrining ensiklopediyasi bo'lgan desak adashmagan bo'lamiz. Bu asarni yana bir farqli jihati shundaki, undagi fikrlar to'g'ridan-to'g'ri emas, balki mantiqiy jihatdan ifodalangan.

Tibbiyotga o'sha davrda hunarning bir turi sifatida qarashgan va tabib bo'lgan kishilar ham o'z bilganlaricha, tajribalaridan kelib chiqqan holda tabiblik qilishgan. Ammo Ibn Sino bunday yo'lni tutmadi, balki tabobat ilmiga oid turli davlat olimlarining asarlarini mutolaa qilgan. Jumladan, u yunon, rim, hind O'rta va Yaqin Sharq tabiblarining tajriba va fikrlariga tayangan. Yana shuni aytish mumkinki, u "Tib qonunlari"ni yozishda yunon tabiblaridan Gippokrat, Galen, Pavel, hindistonlik tabiblardan Charaka asarlarining arab tiliga tarjimasidan o'qib o'z asarlariga rang-barang fikrlar qo'shgan. Ibn Sinoning bu asari qiymatini oshirgan yana bir narsa shuki, unda tibobatning birgina jabhasi emas, turli tarmoqlar, turli kasalliklarga turlicha davolar, dori-darmonlarni qay yo'sinda tayyorlash usullari keltirilgan. Olimning ushbu asari 5 jilddan iborat:

1-Jildida odamning "oddiy a'zolari"—jumladan—suyak, tog'ay, arteriya, vena, pay, bog'lam va muskullar haqida ocherklar keltirilgan. Yana tog'ri ovqatlanish, sog'liqni saqlashga oid ma'lumotlar keltirilgan.

2-Jildida esa hayvon, o'simlik, ma'danlardan olinadigan 800 dan ortiq dori-darmonlarning tasnifi va ularning qo'llanilish usullari bayon qilingan.

3-Jildida odam gavdasining boshidan tovonigacha bo'lgan a'zolarida yuz beradigan "xususiy" yoki "mahalliy" kasalliklar haqida ma'lumotlar berilgan.

4-Jildi esa "Umumiy" kasalliklarga bag'ishlangan.

5-Jildida murakkab tarkibli dori-darmonlarni tayyorlash va ulardan foydalanish usullari yoritilgan. Bundan tashqari, bu bo'limda ziddizaharlar, kulcha dori (tabletka), elaki dori, sharbatlar, qaynatmalar tayyorlash sirlari yoritilgan.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, Ibn Sinoning "Al-qonun fit-tib" asarini oltinga qiyoslash mumkin. Uning ilm yo'lida qilgan ishlari tahsinga sazavordir. Biz yoshlar ota-bobolarimizdan qolgan merosni asrashimiz kerak, shu barobarda biz ham ularning ilmiy-ijodiy ishlarini davom qildirmog'imiz kerak.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. [uz.wikipedia.org/wiki/Abu-Ali-ibn-Sino](http://uz.wikipedia.org/wiki/Abu-Ali-ibn-Sino)
2. [uz.wikipedia.org/wiki/Tib-qonunlari](http://uz.wikipedia.org/wiki/Tib-qonunlari)
3. <https://kitobxon.com/oz/yozuvchi/abu-ali-ibn-sino>
4. "Salomatlik sirlari"(Abu Ali ibn Sino)tibbiy risolalar. Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. Toshkent-2000
5. O'zbekiston tarixi 7-sinf darslik. A.Muhammadjonov "Sharq nashriyoti-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent-2017
6. <https://kitobman.uz/books/kohna-dunyo-978-9943-27-564-5/>